

**MINTAQAVIY VA GLOBAL INTEGRATSIYA JARAYONLARIDA
O'ZBEKISTONNING STRATEGIK YONDASHUVI**

*Arzikulov Muhammad Ali, Jahon iqtisodiyoti yo'nalishi
magistranti*

*Toshpulatova Laylo, i.f.n., dotsent, Xalqaro iqtisodiyot kafedrası
mudiri*

Ushbu tezisda O'zbekistonning YeOII davlatlari bilan savdo hamkorligi dinamikasi, tarkibiy nomutanosibliklar va integratsion risklar xalqaro tajriba asosida tahlil qilingan. Tadqiqot yakunida mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun avval JSTga a'zo bo'lish hamda YeOIIda kuzatuvchi maqomini saqlab qolish strategiyasi asoslangan.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy integratsiya, O'zbekiston va YeOII, savdo balansi, integratsion risklar, JST, kuzatuvchi maqomi, iqtisodiy xavfsizlik.

**СТРАТЕГИЧЕСКИЙ ПОДХОД УЗБЕКИСТАНА В ПРОЦЕССАХ
РЕГИОНАЛЬНОЙ И ГЛОБАЛЬНОЙ ИНТЕГРАЦИИ**

*Арзикулов Мухаммад Али, магистрант направления “Мировая
экономика”*

*Тошпулатова Лайло, к.э.н., доцент, заведующая кафедрой
“Международной Экономики”*

В данном тезисе на основе международного опыта проанализированы динамика торгового сотрудничества Узбекистана со странами ЕАЭС, структурные дисбалансы и интеграционные риски. В заключении обоснована стратегия первоочередного вступления в ВТО и сохранения статуса наблюдателя в ЕАЭС для обеспечения экономической безопасности страны.

Ключевые слова: Экономическая интеграция, Узбекистан и ЕАЭС, торговый баланс, интеграционные риски, ВТО, статус наблюдателя, экономическая безопасность.

THE STRATEGIC APPROACH OF UZBEKISTAN IN THE PROCESSES OF REGIONAL AND GLOBAL INTEGRATION

Arzikulov Mukhammad Ali, master's student in World

Economy

Toshpulatova Laylo, Candidate of Economic Sciences, Head of the

Department of International Economics

In this thesis, the dynamics of Uzbekistan's trade cooperation with the EAEU countries, structural imbalances, and integration risks are analyzed based on international experience. In conclusion, the strategy of prioritizing WTO accession while maintaining observer status in the EAEU is justified to ensure the country's economic security.

Keywords: Economic integration, Uzbekistan and EAEU, trade balance, integration risks, WTO, observer status, economic security.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining mustaqil tashqi iqtisodiy siyosatini shakllantirish va uni global miqyosda diversifikatsiya qilish jarayoni global hamda mintaqaviy integratsiya modellarining murakkab o'zaro ta'siri sharoitida kechmoqda. Globallashuv va mintaqaviy integratsiyaga qo'shilish jarayonlari xalqaro munosabatlar tizimida bir-birini inkor etuvchi emas, balki parallel ravishda rivojlanib boruvchi tendensiyalardir. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston iqtisodiyotining xalqaro savdo arxitekturasiga qo'shilishi global (JST) hamda transmintaqaviy (YeOII) tuzilmalar bilan diplomatik aloqalarni muvozanatli tarzda olib borishni taqozo etmoqda. Bu jarayonda asosiy vazifa "Yoki u, yoki bu" shaklidagi dualistik tanlov oldida qolish emas, balki ikki tizimning ijobiy jihatlarini milliy iqtisodiyot manfaatlari xizmatiga bo'ysundirishdan iboratdir.

Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (YeOII) - postsovet hududidagi integratsiyani tartibga soluvchi eng yirik mintaqaviy iqtisodiy bloklardan biri bo'lib, uning tashkil etilish g'oyasi ilk bor 1994-yilda ilgari surilgan va shakllanish jarayoni bir necha bosqichli huquqiy-institutsional poydevorga tayangan. Uzoq yillik iqtisodiy

va bojxona integratsiyasi bosqichlaridan so'ng, ittifoq 2014-yil 29-mayda Ostona shahrida Rossiya, Qozog'iston va Belarus rahbarlari tomonidan imzolangan "Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi to'g'risidagi Shartnoma" asosida rasman ta'sis etilgan hamda 2015-yil 1-janvardan o'z faoliyatini boshlagan.¹ Shartnomaning asosiy tamoyillari a'zo davlatlarning suveren tengligi va hududiy daxlsizligiga tayanib, uning global strategik maqsadlari tovarlar, xizmatlar, kapital va mehnat resurslarining to'siqsiz harakatlanishini ("to'rtta erkinlik" tamoyili) ta'minlovchi yagona ichki bozorni barpo etish, milliy iqtisodiyotlarni modernizatsiya qilish hamda aholi turmush darajasini yuksaltirishga qaratilgandir.

Ushbu tadqiqot doirasida global tashkilotlar taqdim etadigan ko'p tomonlama huquqiy kafolatlar hamda yaqin mintaqaviy hamkorlar bilan o'rnatilgan chuqur iqtisodiy aloqalarning o'zaro muvozanatini ta'minlash mexanizmlari tizimli ravishda tadqiq etiladi. Respublikamiz tomonidan olib borilayotgan ko'p tomonli tashqi iqtisodiy strategiyaning konseptual asoslarini qiyosiy tahlil qilish, integratsion jarayonlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan geosiyosiy risklarni minimallashtirish va milliy ishlab chiqaruvchilarning global bozordagi raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu o'rinda mamlakatimizning integratsion salohiyatini obyektiv baholash uchun O'zbekiston va Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (YeOII) o'rtasidagi so'nggi yillardagi savdo-iqtisodiy aloqalarning real dinamikasini hamda blok ichidagi geosiyosiy tendensiyalarni tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasi 2020-yildan buyon Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqida kuzatuvchi davlat maqomiga ega bo'lib, o'tgan davr mobaynida ushbu integratsion blok doirasidagi hamkorlik milliy iqtisodiy konyukturaning muhim drayveriga aylandi. Zero, so'nggi yillardagi o'zaro savdo dinamikasi tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston va mazkur ittifoqqa a'zo mamlakatlar o'rtasidagi tovar ayriboshlash hajmi 2019-yildagi 11,2 milliard dollardan 2025-yil yakunlariga

¹ Договор о Евразийском экономическом союзе (Подписан в г. Астане 29.05.2014) // Официальный сайт Евразийской экономической комиссии (eaeunion.org), 2014; Международно-правовая база ЕАЭС.

ko'ra 20,2 milliard dollarga yetdi va qisqa tarixiy davr ichida qariyb ikki barobarga o'sdi.² Ittifoq bozorining mamlakatimiz uchun iqtisodiy salmog'i bugungi kunda ham yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Xususan, Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi ma'lumotlariga ko'ra, 2026-yilning yanvar-may oylari yakuni bo'yicha ushbu ittifoq mamlakatlarining O'zbekiston umumiy tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 27,3%ni tashkil etdi hamda o'zaro tovar ayriboshlash hajmi 22,8%ga o'sib, 9 milliard dollarga yetdi.³

Biroq, tashqi savdo balansida kuchli nomutanosiblik va tarkibiy asimmetriya kuzatilmoqda. Mazkur davrda YeOII bozorlaridan import hajmi 6,1 milliard dollarni tashkil etgan bo'lsa, ittifoq davlatlariga amalga oshirilgan eksport hajmi 2,9 milliard dollardan iborat bo'ldi. Ushbu raqamli nomutanosiblik shundan dalolat beradiki, ittifoqqa to'liq a'zo bo'lish va bojxona to'siqlarining keskin olib tashlanishi ichki bozorda xorijiy tovarlar ekspansiyasini kuchaytirishi hamda milliy ishlab chiqaruvchilarga nisbatan raqobat bosimini yanada oshirishi mumkin. Bundan tashqari, O'zbekistonning YeOII bilan savdo aloqalarida geografik to'planish xavfi yaqqol ko'zga tashlanadi. 2026-yilning dastlabki besh oylik ko'rsatkichlariga ko'ra, O'zbekistonning YeOII doirasidagi savdo aylanmasining 65%i (\$5,8 mlrd) bevosita Rossiya Federatsiyasi, 25%i (\$2,3 mlrd) Qozog'iston Respublikasi hisobiga to'g'ri keladi. Qolgan a'zo davlatlar - Belarus (5%) va Qirg'iziston (5%) bilan savdo aloqalari nisbatan past salmoqqa ega.⁴ Bu esa O'zbekistonning mintaqaviy integratsiyasi mohiyatan butun bir ko'p tomonlama blok bilan emas, balki asosan ikki yirik iqtisodiy hamkor bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

O'zbekiston tashqi savdosida kuzatilayotgan ushbu geografik to'planish va tarkibiy nomutanosibliklar, integratsion bloklar doirasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan iqtisodiy qaramlik xavflarini chuqurroq tahlil qilishni taqozo etadi. Bu borada mintaqaviy integratsiyaning nafaqat savdo raqamlari, balki a'zo

² O'zbekiston Respublikasining Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi mamlakatlari bilan savdo munosabatlari tahlili // Review.uz axborot-tahliliy portali, 2026.

³ O'sha manba

⁴ O'sha manba

<https://scientific-jl.com/>

davlatlarning suverenitetiga ta'sirini baholashda YeOIIning amaldagi a'zosi bo'lgan Armaniston Respublikasi atrofidagi zamonaviy geosiyosiy vaziyat va tarkibiy muammolar muhim empirik pretsedent bo'lib xizmat qiladi.

Mintaqaviy integratsiya jarayonlarining zamonaviy geosiyosiy va tarkibiy xavflarini xolis baholashda, YeOIIning amaldagi a'zosi bo'lgan Armaniston Respublikasi atrofidagi geoiqtisodiy vaziyat muhim empirik pretsedent hisoblanadi. Armaniston iqtisodiyotining savdo, moliya, energetika va mehnat bozori bo'yicha Rossiyaga to'liq qaram bo'lib qolganligi sharoitida (Rossiya bozori Armaniston jami eksportining qariyb 35,3 %ini tashkil etadi), tashqi siyosiy kelishmovchiliklar fonida joriy etiladigan keskin sanitariya va fitosanitar cheklovlar xalqaro tahlilchilar tomonidan oddiy texnik tartibga solish emas, balki "iqtisodiy majburlash" instrumenti sifatida baholanmoqda, ayniqsa, yo'nalishini boshqa bozorlarga tezda burib bo'lmaydigan qishloq xo'jaligi va gulchilik kabi tarmoqlar ushbu notarif bosimlar natijasida keskin moliyaviy shokka duch keldi.⁵ Bu holat YeOII kabi tor doiradagi bloklarda (Bojxona ittifoqi darajasida) chuqur integratsiyalashuv kelgusida mamlakat iqtisodiy suverenitetini cheklab qo'yishi va bitta geosiyosiy markazga yuqori darajada qaram qilib qo'yishini yaqqol ko'rsatadi.

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va Armaniston pretsedenti O'zbekiston Respublikasining mintaqaviy integratsiyalashuv strategiyasi uchun bir qator fundamental xulosalarni taqdim etadi. Birinchidan, YeOII makoni bilan tovar ayriboshlash hajmining 20,2 milliard dollarga yetgani va umumiy savdodagi ulushning 27,3%ni tashkil etishi ushbu bozorning mamlakatimiz uchun obyektiv iqtisodiy ahamiyatga ega ekanligidan dalolat bersa-da, importning eksportdan salkam ikki barobar ko'plig hamda savdo munosabatlarining asosan Rossiya va Qozog'iston hissasiga to'g'ri kelishi O'zbekiston iqtisodiyotining tashqi konyuktura shoklariga nisbatan zaifligini oshiradi. Ikkinchidan, Armanistonning YeOII doirasida duch kelgan "iqtisodiy majburlash" choralari shundan dalolat

⁵ Armenia Between the EAEU and the EU: Assessing the Economic Costs and Opportunities of strategic Reorientation // Caucasus Watch analytical journal. – Berlin, July 7, 2026. – Vol. 8, № 14. URL: caucasuswatch.de

beradiki, bitta mintaqaviy blok doirasida chuqur va muqobilsiz integratsiyalashuv kelgusida milliy iqtisodiy suverenitet va tashqi savdo siyosatini diversifikatsiya qilish imkoniyatlarini keskin cheklab qo'yishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining zamonaviy ko'p tomonlama tashqi iqtisodiy strategiyasi va mintaqaviy integratsiya jarayonlari tahlili, mamlakat iqtisodiy xavfsizligi hamda suverenitetini ta'minlash nuqtai nazaridan chuqur asoslangan xulosalarni shakllantirish imkonini beradi. O'zaro savdo aylanmasidagi geografik to'planish xavfi, import va eksport o'rtasidagi tarkibiy nomutanosibliklar hamda YeOIIning amaldagi a'zolari (masalan, Armaniston pretsedenti) duch kelayotgan geoiqtisodiy "majburlash" bosimlari O'zbekiston uchun integratsiya bosqichlarini oqilona tartibga solishni taqozo etadi. Mazkur tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasining xalqaro iqtisodiy integratsiyalashuv jarayonlaridagi eng maqbul va strategik ustuvor yo'li - avval Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) to'liq a'zo bo'lish hamda parallel ravishda Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqida (YeOII) hozirgi kuzatuvchi davlat maqomini saqlab qolish hisoblanadi.

JSTga birinchi navbatda a'zo bo'lish O'zbekiston iqtisodiyotini global miqyosda diversifikatsiya qilish, xalqaro savdo qoidalarining ko'p tomonlama huquqiy himoyasiga ega bo'lish va tashqi savdoda faqat bir nechta yirik hamkorlarga qaram bo'lib qolish xavfini keskin kamaytirish uchun strategik poydevor yaratadi. JST platformasi taqdim etadigan xalqaro huquqiy mexanizmlar milliy iqtisodiyotni har qanday bir tomonlama notarif va geosiyosiy bosimlardan (siyosiy xarakterdagi sanitariya va fitosanitar cheklovlardan) ishonchli himoya qilish imkonini beradi. Aynan global standartlar va institutlar tizimiga integratsiyalashuv orqali mahalliy korxonalarning jahon bozoridagi raqobatbardoshligi oshirilgandan va eksport portfeli diversifikatsiya qilingandan so'nggina, tor doiradagi mintaqaviy bloklarga kirish masalasini ko'rib chiqish mumkin.

Shu nuqtai nazardan, YeOII makonida hozirgi bosqichda to'laqonli a'zolikka o'tmasdan, aynan kuzatuvchi davlat maqomida qolish mamlakatimiz uchun eng optimal diplomatik va iqtisodiy yechimdir. Ushbu maqom

O'zbekistonga ittifoq ichidagi iqtisodiy jarayonlarni, qabul qilinayotgan texnik reglamentlarni va bozor konyukturasini bevosita kuzatish, milliy manfaatlarga mos keladigan loyihalarda (masalan, transport-logistika va tranzit koridorlari) moslashuvchan ishtirok etish imkoniyatini saqlab qoladi. Shu bilan birga, u milliy bozorni xorijiy ishlab chiqaruvchilarning asimmetrik ekspansiyasidan himoya qiladi va davlatning iqtisodiy mustaqilligini to'liq kafolatlaydi. Xulosa qilib aytganda, global miqyosdagi JST integratsiyasini mintaqaviy YeOI kuzatuvchi maqomi bilan uyg'unlashtirish - O'zbekistonning ko'p vektorli tashqi iqtisodiy siyosatining barqarorligini hamda milliy manfaatlarining daxlsizligini ta'minlovchi eng to'g'ri geoiqtisodiy strategiyadir.

Foydalanilgan adabiyotlar/manbalar ro'yxati:

1. Договор о Евразийском экономическом союзе (Подписан в г. Астане 29.05.2014) // Официальный сайт Евразийской экономической комиссии (eaeunion.org), 2014; Международно-правовая база ЕАЭС.
2. O'zbekiston Respublikasining Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi mamlakatlari bilan savdo munosabatlari tahlili // Review.uz axborot-tahliliy portali, 2026.
3. Armenia Between the EAEU and the EU: Assessing the Economic Costs and Opportunities of strategic Reorientation // Caucasus Watch analytical journal. – Berlin, July 7, 2026. – Vol. 8, № 14. URL: caucasuswatch.de